**XALQ DEPUTATLARI G‘ALLAOROL TUMANI KENGASHINING**

**Q A R O R I**

2024-yil 14-may VI-65-69-3-45-K/24 G‘allaorol tumani

**G‘allaorol tumanidagi shaharcha, qishloq va mahallalarning chegaralarini belgilash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 apreldagi “Ma’muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 299-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida G‘allaorol tumanidagi shaharcha, qishloq va mahallalar chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini muhokama qilib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq xalq deputatlari G‘allaorol tumani Kengashi

**q a r o r q i l a d i:**

1. G‘allaorol tumanidagi shaharcha, qishloq va mahallalar chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan Davlat kadastrlari palatasi G‘allaorol tumani filialining 2024 yil 29 martdagi 01/02-174-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. G‘allaorol tumanidagi shaharcha, qishloq va mahallalar chegara chiziqlarini belgilash (yoki taqsimoti) to‘g‘risidagi ma’lumot ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. G‘allaorol tumanidagi shaharcha, qishloq va mahallalar chegara chiziqlarini belgilash (yoki taqsimoti) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashiga kiritilsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari T.Qo‘chqorov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi OQBOYEV JALOLITDIN JAMOLOVICH

Xalq deputatlari G‘allaorol tumani
Kengashining
2024-yil 14-maydagi
VI-65-69-3-45-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**G‘allaorol tumanidagi shaharcha, qishloq va mahallalarning chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) to‘g‘risida**
**MA’LUMOT**

| № | Shaharcha, qishloq va mahallalar nomi | Chegara uzunligi (metr) | Yer maydoni (gektar) |
|---|---|---|---|
| 1. | Alamli MFY | 4747 | 131,9 |
| 2. | Do‘stlik MFY | 5926 | 108,4 |
| 3. | Mirzabuloq QFY | 29344 | 2610,5 |
| 4. | Nurafshon MFY | 8176 | 304,1 |
| 5. | Moltob QFY | 33628 | 3703,6 |
| 6. | Mulkush QFY | 22120 | 1601,1 |
| 7. | Xonimqo‘rg‘on QFY | 40620 | 5093,5 |
| 8. | G‘o‘bdin QFY | 119726 | 25203,8 |
| 9. | Buloqboshi QFY | 30232 | 1798,9 |
| 10. | Uzunbuloq MFY | 50832 | 8925,6 |
| 11. | Guliston QFY | 30718 | 2739,6 |
| 12. | Qashqabuloq MFY | 20238 | 1245,9 |
| 13. | Oqtom MFY | 40650 | 3541,2 |
| 14. | G‘.G‘ulom MFY | 10201 | 223,4 |
| 15. | Sarbozor MFY | 11394 | 540,9 |
| 16. | Tozaurug‘ QFY | 33471 | 3652,9 |
| 17. | Gulchambar QFY | 56080 | 11300,2 |
| 18. | Jiydali QFY | 62277 | 10110,1 |
| 19. | Korizquduq QFY | 67441 | 9673,6 |
| 20. | Lalmikor MFY | 10976 | 348,2 |
| 21. | O‘zbekiston MFY | 12271 | 606,6 |
| 22. | Marjonbuloq ShFY | 7750 | 215,4 |
| 23. | Yashnaobod MFY | 7573 | 181,7 |
| 24. | Oqtosh MFY | 55765 | 12772,6 |
| 25. | Qipchoqsuv QFY | 57440 | 11426,5 |
| 26. | Naxroch MFY | 35685 | 6890,6 |
| 27. | Samarqand MFY | 5318 | 109,3 |
| 28. | Baxt MFY | 6623 | 106,5 |
| 29. | Ko‘kbuloq QFY | 114034 | 37879,2 |
| 30. | Ko‘kgumbaz MFY | 44654 | 6081,6 |
| 31. | Madaniyat QFY | 51649 | 6012,1 |
| 32. | Qangli MFY | 8240 | 177,8 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 33. | Olimlar MFY | 5556 | 130,8 |
| 34. | Qo‘ytosh ShFY | 58660 | 9866,3 |
| 35. | Savruk MFY | 71718 | 11230,3 |